

# ILM FAN XABARNOMASI

## Ilmiy elektron jurnali

MODAL SO‘ZLARNING IJOBIY VA SALBIY MA’NO BILDIRISHI

*Yuldashev Norqobil*

*O‘zJDTU xalqaro jurnalistika fakulteti 1-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada modal so‘zlar tahlilga tortilgan. Ijobiy va salbiy ma’no bildiruvchi modal so‘zlarning uslubiy imkoniyatlari haqida atroflicha so‘z yuritilgan. Ijobiy va salbiy ma’noga ega modal so‘zlarga misollar keltirilib uslubiy imkoniyatlari ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** modal so‘z, ijobiy, salbiy, uslub, sema, nomema, fraza, so‘z birikmasi.

**Abstract:** modal words are analyzed in this article. The methodological possibilities of positive and negative modal words are discussed in detail. Examples of modal words with positive and negative meanings are given and their methodological possibilities are revealed.

**Key words:** modal word, positive, negative, style, sema, nomema, phrase.

Modal so‘zlar shaxsning, aniqrog‘i so‘zlovchining voqelikka munosabatini anglatar ekan, aynan mana shu modal ma‘nolari orqali tinglovchining e‘tiborini jalb qilishi mumkin. Modal so‘zlar uslubi doirasida ikki xil ottenkani ya‘ni so‘zlovchi fikrining voqelikka yo salbiy, yoki ijobiy munosabatini anglaymiz. Buni modal so‘zlar tasnidagi barcha guruhlarga tegishli desak ham bo‘ladi. O‘zbek tilida ijobiy munosabat bildiruvchi modal so‘zлarni chegaralab bo‘lmaydi. Yuqorida ta‘kidlaganimizdek, ularning ma‘no tovlanishlari hamisha o‘z uslubiylik xususiyatiga ega bo‘ladi, faqat bu uslubiylik ijobiy munosabat aks ettiryaptimi, yoki salbiy – ayni mana shu jihatni bitiruv malakaviy ishimizning mazkur uchinchli bobini uchun muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Modal so‘zlar so‘zlovchi fikriga munosabat bildirar ekan, salbiy yo ijobiy ottenkani ifodalashi og‘zaki so‘zlashuv uslubida, ayniqsa, yaqqol bo‘y ko‘rsatadi. Masalan, tasdiq ma‘nosini ifodalovchi to‘g‘ri modal so‘zi oddiy so‘zlashuv uslubida ham salbiy, ham ijobiy ottenkani ifodalashi mumkin. Biz barcha turdagи modallarga ham xuddi shu hukmni joiz deb bildik. Ya‘ni modal so‘zlarning deyarli hammasi gapda yo salbiy, yo ijobiy hukmni ifodalab kelishi mumkin. Buni biz gapda anglashilayotgan mazmundan tushunishimiz va shunga muvofiq fikr yuritishimiz lozimligidan anglaymiz. Endi, bevosita o‘zbek tilidagi modal so‘zлarning ijobiy ma‘no ottenkalari xususida gaplashsak. O‘zbek tilida modal so‘zlar o‘z nomidan ham anglashilib turganidek, so‘azlovchining o‘z fikriga munosabatini bildiradi. Shundan kelib chiqib, modal so‘zlar gapda ifodalanayotgan mazmunga yuklagan ishonch, gumon, tartib, xulosa yoki shunga o‘xhash ma‘no tovlanishlaridan kelib chiqib, tasniflanadi. Modal so‘zлarning semantik tasnifi turli adabiyotlarda turlicha keltirilganligi bilan diqqatga sazovor. Ular semantik tasniflanishda gap mazmuniga yuklovchi ma‘no ottenkasi jihatdan yoki o‘zbek tilida kelib chiqishi nuqtayi nazardan tasniflanishi mumkin. Tilshunosligimizda modal so‘zлarning yana bir tasniflanish turi ham borki, bu tur modal

# ILM FAN XABARNOMASI

## Ilmiy elektron jurnali

so‘zlarning gap mazmunidagi ijobiy va salbiy ma‘no munosabatlariga kelib bog’lanadi. Ijobiy turdagি modal so‘zlar ikki xil vosita asosida gap mazmuniga ijobiylik bag’ishlashi mumkin. Bular quyidagilardir:

1. Gapda anglashilib turuvchi umumiy mazmun orqali;
2. Gapda muhim rol o‘ynovchi ohang orqali. (Shavkat Rahmatullayev. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Universitet, 2006, 73-bet)

Birinchisi gapdagi ifoda tarzi orqali, ya‘ni aynan ma‘nosi bilan. Ikkinchisi gapning ohangi orqali. Ohang tilshunoslikda, ayniqsa, og‘zaki so‘zlashuv uslubida eng muhim, birlamchi vosita bo‘lib, u orqali gapning mazmuni butunlay teskari aylanib ketishi yoxud aksincha, butkul salbiy ma‘nodagi modal so‘z ham gapga ohang orqali ijobiy ottenka yuklashga xizmat qilishi mumkin. Tilshunoslikda mavjud modal so‘zlarning deyarli barchasi gap jarayonida ijobiy ottenkanı ifodalashi mumkin. Buni modal so‘zlarning semantik tasnifiga nigoh tashlaganda ham anglshimiz mumkin. Bu tasnifda afsus, ajablanish ma‘nosini anglatuvchi modal so‘zlardan tashqari deyarli barcha – barchasi ijobiy ma‘no ottenkasiga ega bo‘lishi mumkin. Gaplarimizni misollar orqali asoslashga harakat qilib ko‘ramiz.

*Ehtimol, sizda ham shunday hollar bo‘lgandir: tun yarmidan oqqanda birdan uyg'onib ketasiz. Yo‘q, chamamda, onalarning biz tushunmaydigan, bizning o‘lchovimizga sig'maydigan o‘z olami borga o‘xshaydi.* Mazkur ikki gapda qo‘llanilgan ehtimol va chamamda modal so‘zları semantik tasnifi jihatdan bir guruh tarkibiga kiruvchi so‘zlar hisoblanadi. Hozir ham biz ularni bemalol ijobiy va salbiy ma‘no anglatish jihatiga ko‘ra bir guruhga kiritishimiz mumkin bo‘ladi. Ehtimol modal so‘zi birinchi gapda so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi muomala – munosabatga ko‘priq vazifasini o‘tamoqda. Xuddi shuningdek, **chamamda** modal so‘zi ham tinglovchiga –da, so‘zlovchiga –da mavhum bo‘lgan voqelik ustidan tusmol hukm chiqaryapti. Lekin bu hukm also salbiy emas. Faqat ijobiy. O‘zbek tilida ijobiy ma‘nosi bo‘rtib turuvchi modal so‘zlar sirasiga biz, **xayriyat, shoyadki, alal-oqibat, har holda, har qalay kabi modal so‘zlarni kiritsak, xato bo‘lmaydi, mening nazarimda. Ayniqsa, xayriyat** modal so‘zi turish – turmishi bilanoq gapga ijobiy ma‘no yuklashi mumkin. Bunday tipdagi gaplar agar piching, kinoya, kesatiq ma‘nosiga yo‘g‘rilgan bo‘lsagina, bu vazifasidan chekinib salbiy ottenka uchun xizmat qilishi mumkin bo‘ladi. Biroq, xayriyatki, bunday holatlarga kamdan kam duch kelamiz.

Namuna :

*Xayriyatki, odamlar uy – uyiga tarqala boshladi.*

“Xayriyat-e”, shu bolaning yo‘qligi ham qanday yaxshi !Ushbu gaplarda mavjud xayriyat modal so‘zi uchchala gapda uch xil ma‘no ottenkasini ifodalashga xizmat qilgan.

Masalan, birinchi gapda uzoq kutilgan va nihoyat sodir bo‘lgan voqeа-hodisaga nisbatan so‘zlovchining shukronalik nuqtayi –nazaridan qo‘llagan mazkur fikri faqat ijobiy xarakterga ega bo‘lishi mumkin. Ikkinci gapda esa aksincha. Birinchi gapga qaraganda salbiy ma‘no ottenkasiga xizmat qiluvchi xayriyat modal so‘zi o‘zbek onalariga, o‘zbek ayollariga xos bo‘lмаган toshbag‘irlik, bemehrlik bilan qabul qilinmoqda. Shunga muvofiq faqat ijobiy ma‘noga xizmat qiluvchi xayriyatki modal so‘zi ham salbiy ma‘no ifodalashga xizmat qilmoqda. Umuman, modal so‘zlar hamma nutq uslublarida qo‘llanib, so‘zlovchining o‘z fikriga nisbatan xilma –xil

munosabatini va tabiat hodisalarini, ilmiy xulosalarni asoslash yo manbayini ko'rsatish kabi ma'nolarni bildiradi. Badiiy adabiyotda qahramonning biror tomonini – o'ziga xos salobat yo xususiyatini yanada qabartirishda modal so'zlar eng qulay vositalardan biri sanaladi. Abdulla Qahhorning — "Sinchalak" asaridagi jamoa xo'jaligi raisi Qalandarov o'z nutqida xo'sh, xo'p, mayli, albatta, yaxshi kabi so'zlarni ko'p qo'llaydi. Abdulla Qahhor bu so'zlar orqali Arslonbek akaning lavozimi va tabiatiga ishora qiladi. She'riyatda *afsuski, yaxshiyam, attang, mayli* kabi modal so'zlar ko'p qo'llanadi hamda turli ruhiy holatlarni aniq ifodalashga xizmat qiladi. Yaxshiyam, shodlik bor boqiy hayotda ( Erkin Samandar ).

Modal so'z vazifasida ko'proq sifat, son, olmosh, fe'llar, modal so'zlar kelib, tasdiq, inkor, tartib, izoh, qaratish, fikriy yo'nalish, xulosalash, e'tiborni jalb qilish, ikki fikrni bog'lash, voqeani rivojlantirish kabi uslubiy ma'nolarni anglatadi. ( Mirtojiyev M. Hozirgi o'zbek adabiy tili I jild. 2004, 48-bet) *Farzand, avvalo, hayot guli, umr mevasi, ona qanoti, azizim! Men, ayniqsa, gul bahorni zo'r zavq – shavq bilan kutib olaman.* ( Zafar Diyor ).

*Hozir barhayot bo'lgan Temur shahzodalaridan eng tadbirkori, eng qobili va eng munosib sohibi taxt, shubhasiz, Husayn Boyqarodir.* ( Uyg'un, Izzat Sulton ).

Modal so'zlar gapda mustaqil gap bo'lagi vazifasini ham bajarishi mumkin. Bunda ularga xos ohang bo'lmaydi, o'zi bog'langan so'z bilan ohangda bitishadi. Va bu mustaqil so'zlar modal so'zlar bilan leksik omonimiyani hosil qiladi.

*To'g'ri so'z toshni kesadi. Tog'ri, tilimiz boshqa, ammo dilimiz bir.*

Xullas, so'zlovchining o'zi bildirgan fikrga, voqeа – hodisalarga munosabatini ifodalovchi so'zlar modal so'zlar ( lotincha "modus" – usul, o'Ichov ) deyiladi. Bunday munosabat fikrning aniqligi yoki noaniqligi nuqtayi – nazaridan bo'ladi. Modal so'zlar morfologik jihatdan yaxlit, ya'ni morfemalarga bo'linmas bo'ladi. Kerak, lozim, shart, darkor modal so'zlar harakat nomi bilan ishlatilib kesimlik so'zlar bo'lib keladi. Bu modal so'zlar bilan ishlatilgan harakat nomi egalik qo'shimchalarisiz ishlatilsa shaxsi topilmas, egalik qo'shimchalarining 1- va 2- shaxsi bilan ishlatilsa shaxsi ma'lum gap, 3- shaxs egalik bilan ishlatilsa, shaxsi noma'lum gapning kesimi bo'lib keladi. Modal so'zlarga siljigan so'zlar o'z turkumi doirasida leksik ma'no ifodalaydi, gap bo'lagi vazifasida keladi, modal ma'no ifodalaganda esa, bu xususiyatlarini yo'qotadi. Umuman, modal so'zlar gapdagi ijrosiga ko'ra hamisha ikki xil ottenkani salbiy va ijobiy munosabatni ifodalashi mumkin. Agar so'zlovchi o'z fikriga salbiy munosabatini ifodalamoqchi bo'lsa, attang, afsus, jin ursin, kabi modallardan, agar aksincha, o'z fikriga ijobiy tus berishni xohlasa koshkiydi, xayriyat, qaniydi, baxtimga, toleyimizga, yaxshiyamki kabi modal so'zlardan keng foydalanishi mumkin ekan.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Р. Сайфуллаева ва б. Ҳозирги Ўзбек адабий тили -Тошкент-2009
2. Shavkat Rahmatullayev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Toshkent: Universitet, 2006
3. Zikrullayev G'. O'zbek tili morfologiyasi. –Buxoro. 1994.
4. G'ulomov. A, Asqarova. M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 1965.
5. Hozirgi zamon o'zbek tili. –Toshkent: 1957
6. Mirtojiyev M. Hozirgi o'zbek adabiy tili I jild. –Toshkent, 2004